



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI,  
XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI  
VA TASHQI QARZI**

**2026**

I CHORAK

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MARKAZIY BANKI**

2026

Bu qanday nashr?

Ushbu nashr 2026-yilning I choragi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan.

---

Ma'lumotlar qaysi sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2026-yil 30-iyun holatiga dolzarb hisoblanadi.

---

Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

---

Nashrga taalluqli savol va takliflar bo'yicha qanday murojaat qilish mumkin?

**R.M. Mirzaaxmedov**

*Statistika va to'lov balansi departamenti direktori*

(+998) 71 212-60-76

[r.mirzaahmedov@cbu.uz](mailto:r.mirzaahmedov@cbu.uz)

**Sh.X. Xayitboyev**

*To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i*

(+998) 71 212-60-42

[sh.khayitboev@cbu.uz](mailto:sh.khayitboev@cbu.uz)

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda [val@cbu.uz](mailto:val@cbu.uz) elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

## QISQACHA SHARH

2026-yilning I choragida O'zbekiston tashqi sektorida o'tgan davrlarda kuzatilgan ijobiy tendensiyalar davom etdi. Bu tovarlar va xizmatlar eksporti hamda mamlakatga kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmining o'sishida namoyon bo'ldi. Shuningdek, hisobot davrida xalqaro zaxiralar qoldig'i oshishi mamlakatning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei mustahkamlanishini ta'minladi.


Jumladan, 2026-yilning I choragida **jami eksport** hajmi 5,6 mlrd dollarni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30 foizga qisqardi. Ushbu kamayish hisobot davrida oltin eksport qilinmaganligi bilan izohlanib, boshqa tovarlar (oltinsiz) eksporti 29 foizga, xizmatlar eksporti esa 18 foizga ko'paydi.

Hisobot davrida **jami import** hajmi 29 foizga o'sib, 13,9 mlrd dollarga yetdi. Bu investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabining yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida mashina va uskunalar, transport vositalari, kimyoviy va mineral mahsulotlar hamda oziq-ovqat tovarlari importining yuqori hajmlarda shakllangani bilan izohlanadi. Import tarkibida tovarlar importi 33 foizga, xizmatlar importi esa 19 foizga oshdi.

Savdo balansi bo'yicha manfiy saldo 8,3 mlrd dollarni, **birlamchi daromadlar** hisobi bo'yicha esa 43 mln dollar bilan shakllanishiga qaramasdan, ushbu taqchilik **ikkilamchi daromadlar** bo'yicha qayd etilgan sof tushumlar (2,5 mlrd dollar) hisobiga qisman qoplandi.

### Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari

mln dollar



Yuqorida qayd etilgan tarkibiy omillar ta'sirida **joriy operatsiyalar hisobi** qariyb **5,8 mlrd** dollar miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

Ushbu taqchillik asosan to'g'ridan-to'g'ri va boshqa investitsiyalar komponentlari bo'yicha operatsiyalar hamda boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, hisobot davrida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**<sup>1</sup> 702 mln dollarga teng bo'ldi.


**Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi** 4,1 mln dollarni tashkil qildi.

Davlat sektori, banklar va boshqa sektorlar kesimida valyuta va depozitlar, savdo kreditlari hamda tashqi qarzlarni bo'yicha operatsiyalar hisobiga **boshqa investitsiyalar** komponenti bo'yicha qariyb 1,1 mlrd dollar miqdorida sof kiritim qayd etildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2026-yilning I choragi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **4,9 mlrd** dollarni tashkil etdi.

### Moliyaviy hisob komponentlari

mln dollar



<sup>1</sup> To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

Hisobot davrida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 3,1 mlrd dollarga kamayishi kuzatildi. Shu bilan birga, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 2,7 mlrd dollarga ko'payib, 2026-yilning 1-aprel holatiga **69 mlrd** dollarni tashkil qildi.

To'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqei** joriy yil boshiga nisbatan **10 foizga** mustahkamlanib, 2026-yil 1-aprel holatiga **21,6 mlrd** dollarga yetdi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi yil boshiga nisbatan 2,6 mlrd dollarga (2 foiz) hamda tashqi majburiyatlari hajmi 534 mln dollarga (0,5 foiz) ko'paydi.

Hisobot choragi yakuniga ko'ra, umumiy tashqi qarz qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan o'zgarishsiz saqlanib, 82,2 mlrd dollarni tashkil qildi. Uning tarkibida davlat tashqi qarzi 40,5 mlrd dollar<sup>2</sup>, korporativ tashqi qarz esa 41,7 mlrd dollarga teng bo'ldi.

*Ma'lumot uchun: korporativ tashqi qarz tarkibida xususiy sektor, jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat kafolatisiz jalb etilgan tashqi qarzlarning aks ettiriladi. Bunda, korporativ tashqi qarz bo'yicha davlat majburiyati mavjud emas, ular bo'yicha to'lovlar xo'jalik subyektlari hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.*

*Shu o'rinda, XVJ bayonotida O'zbekistonning tashqi qarz yuki past darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e'tirof etilgan.*

*Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.*

---

<sup>2</sup> XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

**1-ilova. 2024-2026-yillarning I choraklari uchun to'lov balansi**  
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

| Ko'rsatkichlar   | 2024-yil<br>I chorak | 2025-yil<br>I chorak | 2026-yil<br>I chorak |
|--|----------------------|----------------------|----------------------|
| <b>A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi</b>                                       | <b>-2 104,5</b>      | <b>-303,8</b>        | <b>-5 793,3</b>      |
| Tovarlar, kredit (eksport)   | 5 331,4              | 6 241,3              | 3 444,5              |
| Tovarlar, debet (import)   | 8 063,4              | 7 669,4              | 10 195,3             |
| Xizmatlar, kredit (eksport)  | 1 203,2              | 1 839,1              | 2 173,1              |
| Xizmatlar, debet (import)  | 2 369,0              | 3 126,9              | 3 712,2              |
| <i>Savdo balansi saldosi</i>   | <i>-3 897,8</i>      | <i>-2 715,9</i>      | <i>-8 289,9</i>      |
| Birlamchi daromadlar, kredit   | 1 406,3              | 1 704,4              | 1 430,3              |
| Birlamchi daromadlar, debet  | 1 061,6              | 1 295,7              | 1 473,4              |
| <i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>                               | <i>-3 553,1</i>      | <i>-2 307,2</i>      | <i>-8 333,1</i>      |
| Ikkilamchi daromadlar, kredit  | 1 690,1              | 2 346,0              | 2 906,9              |
| Ikkilamchi daromadlar, debet   | 241,5                | 342,5                | 367,1                |
| <b>B. Kapital operatsiyalari hisobi</b>  | <b>0,3</b>           | <b>0,8</b>           | <b>6,9</b>           |
| Kapital operatsiyalar hisobi, kredit   | 0,3                  | 0,8                  | 6,9                  |
| Kapital operatsiyalar hisobi, debet  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| <i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>          | <i>-2 104,2</i>      | <i>-303,0</i>        | <i>-5 786,4</i>      |
| <b>C. Moliyaviy hisob<br/>(zaxira aktivlaridan tashqari)</b>                       | <b>-512,1</b>        | <b>-2 661,9</b>      | <b>-1 834,1</b>      |
| To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar                                       | 4,7                  | 3,5                  | 153,1                |
| To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar                                  | 380,1                | 761,7                | 702,0                |
| Portfel investitsiyalar, aktivlar  | 0,0                  | 0,0                  | 1,2                  |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 0,0                  | 0,0                  | 1,2                  |
| Qarz instrumentlari  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Portfel investitsiyalar, majburiyatlar   | -485,1               | 1 542,5              | 4,1                  |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | -18,6                | 3,0                  | -4,9                 |
| Qarz instrumentlari  | -466,5               | 1 539,4              | 9,0                  |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)           | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar                                   | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Boshqa investitsiyalar, aktivlar   | 501,1                | 1 142,5              | -188,9               |
| Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari                                 | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Qarz instrumentlari  | 501,1                | 1 142,5              | -188,9               |

| Ko'rsatkichlar   | 2024-yil<br>I chorak | 2025-yil<br>I chorak | 2026-yil<br>I chorak |
|--|----------------------|----------------------|----------------------|
| Markaziy bank  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno                 | 84,4                 | -50,0                | -417,9               |
| Davlat boshqaruv sektori   | -4,0                 | -4,5                 | -5,9                 |
| Boshqa sektorlar   | 420,8                | 1 197,0              | 235,0                |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Nomoliyaviy tashkilotlar,<br>uy xo'jaliklari va UXXKNT               | 420,8                | 1 197,0              | 235,0                |
| Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar                                | 1 122,9              | 1 503,7              | 1 093,5              |
| Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari                   | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| MQH taqsimlanishi  | -0,2                 | -0,5                 | -0,2                 |
| Qarz instrumentlari  | 1 123,0              | 1 504,1              | 1 093,7              |
| Markaziy bank  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |
| Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno                 | -179,9               | 510,3                | 715,1                |
| Davlat boshqaruv sektori   | 857,5                | 280,1                | 403,8                |
| Boshqa sektorlar   | 445,4                | 713,8                | -25,1                |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar  | 3,5                  | 1,3                  | -6,5                 |
| Nomoliyaviy tashkilotlar,<br>uy xo'jaliklari va UXXKNT               | 441,9                | 712,5                | -18,6                |
| <b>D. Sof xatolar va yo'qotishlar</b>                                | <b>539,3</b>         | <b>-528,9</b>        | <b>854,3</b>         |
| <b>E. Umumiy balans</b>  | <b>1 052,8</b>       | <b>-1 830,0</b>      | <b>3 098,0</b>       |
| <b>F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar</b>                   | <b>-1 052,8</b>      | <b>1 830,0</b>       | <b>-3 098,0</b>      |
| Zaxira aktivlari   | -1 083,5             | 1 799,9              | -3 098,0             |
| XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari) | -30,7                | -30,1                | 0,0                  |
| Boshqa moliyalashtirish  | 0,0                  | 0,0                  | 0,0                  |

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

**2-ilova. 2024-2025-yillar va 2026-yilning I choragi uchun xalqaro investitsiyaviy mavqe**  
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

| Ko'rsatkichlar   | 01.01.2025y.    | 01.01.2026y.     | 01.04.2026y.     |
|--|-----------------|------------------|------------------|
| <b>Aktivlar</b>  | <b>96 409,6</b> | <b>128 504,9</b> | <b>131 089,7</b> |
| <b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>  | <b>243,8</b>    | <b>408,8</b>     | <b>560,6</b>     |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari   | 69,0            | 234,0            | 385,8            |
| To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari                          | 69,0            | 234,0            | 385,8            |
| To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar   | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qarz instrumentlari  | 174,8           | 174,8            | 174,8            |
| To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari                          | 2,6             | 2,6              | 2,6              |
| To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar   | 172,2           | 172,2            | 172,2            |
| <b>Portfel investitsiyalar</b>   | <b>3,1</b>      | <b>3,5</b>       | <b>4,6</b>       |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari   | 3,1             | 3,5              | 4,6              |
| Markaziy bank  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari  | 1,1             | 1,1              | 1,1              |
| Davlat boshqaruvi sektori  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Boshqa sektorlar   | 2,0             | 2,3              | 3,5              |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qarz qimmatli qog'ozlari   | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Markaziy bank  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Davlat boshqaruvi sektori  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Boshqa sektorlar   | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| <b>Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyonlari</b>    | <b>0,0</b>      | <b>0,0</b>       | <b>0,0</b>       |

| Ko'rsatkichlar   | 01.01.2025y.    | 01.01.2026y.     | 01.04.2026y.     |
|--|-----------------|------------------|------------------|
| <b>Boshqa investitsiyalar</b>  | <b>54 981,1</b> | <b>61 780,9</b>  | <b>61 533,9</b>  |
| Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari   | 7,0             | 20,2             | 20,2             |
| Qarz instrumentlari  | 54 974,0        | 61 760,6         | 61 513,7         |
| Markaziy bank  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari  | 4 061,9         | 5 589,7          | 5 144,9          |
| Davlat boshqaruvi sektori  | 2,8             | 4,8              | 14,9             |
| Boshqa sektorlar   | 50 909,4        | 56 166,1         | 56 353,9         |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| <b>Zaxira aktivlari</b>  | <b>41 181,6</b> | <b>66 311,8</b>  | <b>68 990,5</b>  |
| Monetar oltin  | 32 036,7        | 55 092,4         | 60 850,3         |
| Qarz olishlarning maxsus huquqlari   | 547,3           | 574,8            | 569,3            |
| XVJdagi zaxira pozitsiyasi   | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Boshqa zaxira aktivlari  | 8 597,7         | 10 644,5         | 7 570,9          |
| <b>Majburiyatlar</b>   | <b>86 707,9</b> | <b>108 964,4</b> | <b>109 498,2</b> |
| <b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar</b>  | <b>20 391,3</b> | <b>25 602,0</b>  | <b>25 648,6</b>  |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari   | 15 731,7        | 19 495,8         | 19 407,8         |
| To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari                          | 15 731,7        | 19 495,8         | 19 407,8         |
| To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar   | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qarz instrumentlari  | 4 659,6         | 6 106,2          | 6 240,8          |
| To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari                          | 4 201,8         | 5 307,1          | 5 404,0          |
| To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0             | 0,0              | 0,0              |
| Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar   | 457,8           | 799,2            | 836,7            |
| <b>Portfel investitsiyalar</b>   | <b>8 428,9</b>  | <b>13 747,7</b>  | <b>13 565,7</b>  |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari   | 117,2           | 143,1            | 197,5            |
| Markaziy bank  | 0,0             | 0,0              | 0,0              |

| Ko'rsatkichlar  | 01.01.2025y.    | 01.01.2026y.    | 01.04.2026y.    |
|---|-----------------|-----------------|-----------------|
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari   | 75,1            | 93,2            | 144,9           |
| Davlat boshqaruvi sektori   | 0,0             | 0,0             | 0,0             |
| Boshqa sektorlar  | 42,1            | 49,9            | 52,5            |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar   | 1,7             | 2,6             | 2,5             |
| Qarz qimmatli qog'ozlari  | 8 311,7         | 13 604,6        | 13 368,2        |
| Markaziy bank   | 0,0             | 0,0             | 0,0             |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari   | 2 340,4         | 3 278,8         | 3 138,0         |
| Davlat boshqaruvi sektori   | 4 049,9         | 6 290,4         | 6 198,7         |
| Boshqa sektorlar  | 1 921,4         | 4 035,4         | 4 031,5         |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar   | 0,0             | 0,0             | 0,0             |
| <b>Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari</b> | <b>0,0</b>      | <b>0,0</b>      | <b>0,0</b>      |
| <b>Boshqa investitsiyalar</b>   | <b>57 887,8</b> | <b>69 614,7</b> | <b>70 283,8</b> |
| Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari  | 0,0             | 0,0             | 0,0             |
| Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)   | 1 037,4         | 1 088,3         | 1 077,7         |
| Boshqa qarz instrumentlari  | 56 850,3        | 68 526,4        | 69 206,1        |
| Markaziy bank   | 0,0             | 0,0             | 0,0             |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari   | 11 680,7        | 14 752,3        | 15 351,4        |
| Davlat boshqaruvi sektori   | 25 330,8        | 30 302,8        | 29 942,9        |
| Boshqa sektorlar  | 19 838,9        | 23 471,2        | 23 911,8        |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar   | 119,3           | 177,5           | 169,5           |
| <b>Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe</b>  | <b>9 701,7</b>  | <b>19 540,5</b> | <b>21 591,6</b> |